XALQ DEPUTATLARI BEKOBOD TUMAN KENGASHINING
Q A R O R I

2024 - yil 6 - yanvar VI-83-1-10-135-K/24 Bekobod tuman hokimligi

Bekobod tumanining 2024-yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-, 24-moddalari, Byudjet kodeksining 99-moddasi, “2024- yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi 886-son Qonuni hamda xalq deputatlari Toshkent viloyati Kengashining 2023-yil 29- dekabrdagi VI-85-121-10-0-K/23-sonli qaroriga muvofiq xalq deputatlari Bekobod tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi Qonuni va xalq deputatlari Toshkent viloyati Kengashining 2023-yil 29-dekabrdagi VI-85-121-10-0-K/23-sonli qarori ijro uchun qabul qilinsin.

2. Xalq deputatlari Toshkent viloyati Kengashining 2023-yil 29-dekabrdagi VI-85-121-10-0-K/23-sonli qaroriga muvofiq Bekobod tumani mahalliy byudjetining 2024-yil uchun daromadlari 193 737 776,0 ming.so‘m va xarajatlari 193 737 776,0 ming.so‘m prognoz qilinganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. 2024-yil uchun tuman mahalliy byudjeti daromadlari prognozi **1-ilova**ga muvofiq qabul qilinsin.

4. 2024-yil uchun tuman mahalliy byudjetidan moliyalashtiriladigan byudjet tashkilotlariga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari **2-ilova**ga muvofiq tasdiqlansin.

5. 2024-yil uchun tuman mahalliy byudjetiga umumdavlat soliqlaridan

ajratmalar normativlari **3-ilova**ga muvofiq tasdiqlansin.

6. 2024-yil uchun Bekobod tumani mahalliy byudjetining daromadlari va xarajatlarining prognozi **4-ilova**ga muvofiq qabul qilinsin.

7. 2024-yil uchun viloyat byudjetidan Bekobod tumani mahalliy byudjetiga ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar miqdorlari 89 864 656,0 ming.so‘m etib belgilansin.

Bunda, tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar miqdori Bekobod tumani mahalliy byudjeti daromadi prognozi ijrosidan qat’iy nazar kamaytirishga yo‘l qo‘yilmasligi qonunda belgilab qo‘yilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

8. 2024-yil uchun Bekobod tumani mahalliy byudjeti zaxira jamg‘armasi hajmlari 1 717 278,0 ming.so‘m miqdorida belgilansin.

Tuman mahalliy byudjetining 2024-yil uchun zaxira jamg‘armasi tegishli byudjet tasdiqlangan umumiy xarajatlarining kamida 1,0 foizi miqdorida shakllantirilsin.

9. 2024-yil uchun Bekobod tumani mahalliy byudjeti shaxsiy g‘azna hisob varaqlarida turgan byudjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori 1 260,378,0 ming.so‘m qilib belgilansin.

10. Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar bo‘yicha mahallalar kesimida ularning iqtisodiy rivojlanishiga qarab yer solig‘i stavkasiga 0,5 dan 2,0 gacha kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlarni qo‘llagan holda yer solig‘i stavkalari **5-ilova**ga hamda yuridik shaxslar bo‘yicha mol-mulk soliqlari uchun qo‘llaniladigan mutloq miqdorlari **6-ilova**ga muvofiq tasdiqlansin.

Bunda, jismoniy shaxslarga soliq yukining keskin oshishiga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida uy-joy fondining ko‘chmas mulk obyektlariga, shuningdek ular egallab turgan yer uchastkalariga nisbatan quyidagilar belgilansin:

2018-yillda belgilangan kadastr qiymati asosida hisoblangan jismoniy shaxslardan olinadigan mol–mulk solig‘i summasi 2023-yil uchun hisoblangan soliq summasining 1,3 baravaridan oshmasligi;

Jismoniy shaxslardan olinadigan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun yer solig‘i summasi 2023-yil uchun hisoblangan soliq summasining 1,3 baravaridan oshmasligi lozim.

11. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (v.v.b.E.Imomov), tuman

iqtisodiyot va moliya moliya bo‘limi (M.Turdimatova), tuman Davlat soliq inspeksiyasi (R.Rustamov) va mas’ul tashkilotlar bilan birgalikda:

tuman mahalliy byudjetini birinchi navbatda ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat , dori-darmon va kommunal xizmatlar xarajatlarining rejalashtirilishini nazarda tutgan holda shakllantirish;

tuman mahalliy byudjeti prognoz ko‘rsatkichlarini o‘z vaqtida va samarali bajarish;

tuman mahalliy byudjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanish;

tuman mahalliy byudjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas’uliyatni yanada kuchaytirish;

tuman mahalliy byudjetlarga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning to‘liq tushumini ta’minlash;

byudjet daromadlar bazasini oshirish va qo‘shimcha rezervlarni aniqlash zarurligiga alohida e’tibor qaratsin.

12. Tuman Davlat soliq inspeksiyasi O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan vakolatlaridan kelib chiqib:

-soliqlarning to‘liq va to‘g‘ri hisoblanishi hamda ushbu soliqlarni o‘z vaqtida byudjetga undirilishi ustidan soliq nazoratini kuchaytirish;

-yer solig‘i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va mol-mulk soliqlari bo‘yicha doimiy tahlililar o‘tkazgan holda, soliqlarni to‘liq hisoblanishini ta’minlash hamda ushbu soliq to‘lovlari bo‘yicha soliq qarzdorligiga yo‘l qo‘ymaslik choralarini ko‘rish;

-aylanmadan soliq turi bo‘yicha soliq to‘lovchilar tomonidan naqd pul aylanmalarining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy soliq nazoratini o‘rnatish hamda zarur hollarda xronometraj va kameral soliq nazorati tadbirlarini o‘tkazish;

-bunda, mazkur yo‘nalishda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish maqsadida fuqarolarga xarid chekini talab qilib olishni targ‘ib etuvchi ijtimoiy roliklar hamda video materiallar tayyorlab, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga alohida e’tibor qaratsinlar.

xatlov ishlarini samarali tashkil etish orqali yer va mol-mulk solig‘ining

soliq bazasini oshirish vazifasi yuklatilsin.

13. Tuman Davlat soliq inspeksiyasi (R.Rustamov), tuman ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish bo‘limi (N.Djumantayev) bilan birgalikda:

-noruda qurilish materiallarini qazib olish sohasida noqonuniy faoliyat olib borayotgan karyerlarni aniqlash bo‘yicha xatlovlar o‘tkazish;

-xatlov natijalari bo‘yicha aniqlangan noqonuniy faoliyat olib borayotgan karyerlar faoliyatini qonuniylashtirish hamda ularni soliq bazasiga qamrab olish;

-noruda qurilish materiallarini qazib olish sohasida faoliyat olib borayotgan karyerlar tomonidan qazib olinayotgan noruda qurilish materiallar hajmining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy nazorat o‘rnatsin.

Bunda, ushbu sohada faoliyat olib borayotgan karyerlarning qazib olish hajmlarini doimiy tahlil qilib borish hamda zarur hollarda qazib olish hajmlarini aniqlashda mahalliy byudjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan “marksheydrlik” xizmatlaridan foydalanish lozimligi alohida belgilab qo‘yilsin.

14. O‘zbekiston Respublikasi Bosh Prokuraturasi huzuridagi Majburiy ijro byurosi Bekobod tuman bo‘limi (O.Gulyamov), tuman Davlat soliq inspeksiyasi (R.Rustamov) bilan hamkorlikda soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha mavjud soliq qarzdorliklarini byudjetga undirish yuzasidan tegishli choralar ko‘rib borsin hamda choraklar yakuni bilan soliq qarzdorliklarining chorak boshiga nisbatan kamayib borishi bo‘yicha barcha kompleks chora-tadbirlar ko‘rish vazifasi yuklatilsin.

15. Tuman hokimi o‘inbosari (B.Isamutdinov):

-bo‘sh turgan davlat mulki obyektlarini aniqlash bo‘yicha xatlov ishlarini samarali tashkil etish;

-xatlov natijalariga ko‘ra tumanda mavjud bo‘sh turgan davlat mulki obyektlari ro‘yxatini shakllantirish;

-shakllantirilgan ro‘yxatga asosan bo‘sh turgan davlat mulki obyektlarini ijaraga berish yoki sotish bo‘yicha tegishli takliflar tayyorlash;

-bo‘sh turgan davlat mulki obyektlarini ijaraga berish yoki sotish bo‘yicha ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida roliklar va video-materiallar tayyorlash;

-xususiylashtirilishi mo‘ljallangan bo‘sh turgan davlat mulki obyektlarini «e-ijro auksion» maydonchasi orqali sotish ishlarini tashkillashtirsin;

-tashqi reklama obyektlarini to‘liq xatlovdan o‘tkazgan holda, ushbu tashqi reklama obyektlari bo‘yicha shartnomalar tuzish choralarini ko‘rsin hamda ushbu shartnomalar bo‘yicha yig‘imlarni byudjetga to‘lanishi ustidan doimiy nazorat o‘rnatsin.

16. Tuman mahalliy byudjeti jami xarajatlarining 5 foizi hamda shakllangan qo‘shimcha mablag‘larining kamida 30 foizini jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirish uchun “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”ga yo‘naltirsin.

Bunda, xalq deputatlari tuman kengashi, Yoshlar ishlar agentligi, tuman hokimligi huzuridagi Jamoatchilik kengashlari hamda yangi joriy etilgan hokim yordamchilari byudjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash maqsadida aholiga keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga mas’ul etib belgilansin;

mahalliy byudjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan xarid qilingan tovarlar va xizmatlar, qurilish, rekonstruksiya qilish va ta’mirlash ishlari olib borilayotgan obyektlar ro‘yxati, shuningdek qurilish-ta’mirlash ishlarining moliyalashtirilishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar har chorak yakunlariga ko‘ra, keyingi chorak birinchi oyining 10 sanasiga qadar majburiy tartibda tegishli hokimlik rasmiy veb-saytlariga joylashtirib borsin.

17. Tuman irrigatsiya bo‘limi (Z.Karabayev) va tuman Davlat soliq inspeksiyasi (R.Rustamov) tumanda sug‘orishga sarflanayotgan suv hajmlari bo‘yicha aniq hisob-kitoblar yuritgan holda mazkur iste’mol hajmlari bo‘yicha suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqlarni to‘liq hisoblanishini hamda moliya yili yakuniga qadar mahalliy byudjetlarga to‘liq undirib olish choralarini ko‘rsin.

Bunda, qishoq xo‘jaligi korxonalari tomonidan iste’mol qilinayotgan suv resuslari hajmlari va ushbu hajmlar bo‘yicha hisoblanayotgan suv soliqlari bo‘yicha doimiy tahlillar o‘tkazishga alohida e’tibor qaratilsin.

18. Tuman ichki ishlar bo‘limi (J.Raxmatov), tuman yo‘l harakati xavfsizligi bo‘limi (F.Qo‘ydimurodov), tuman Davlat xizmatlari markazi (U.Mirzayev) hisoblangan boj, jarima va yig‘imlarni o‘z vaqtida o‘rnatilgan tartibda byudjetga undirish choralarini ko‘rib borsin.

19. Kengashning mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi:

-mahalliy byudjetning qo‘shimcha manbalaridan foydalanish to‘g‘risidagi hokimlik tomonidan taqdim etilgan takliflar asosida byudjet qonunchiligiga to‘liq rioya etilgan holda Kengash qaror loyihasini ishlab chiqilishiga;

-Kengash qarori asosida mahalliy byudjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan ajratilgan mablag‘larni samarali va maqsadli foydalanishi ustidan nazorat o‘rnatish va natijalari bo‘yicha tavsiyalar berishga monitoring qilishga;

-mahalliy byudjet xarajatlarining qonunchilikda belgilangan qismining jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltirilishida ishtirok etishi va ushbu mablag‘larning maqsadli sarflanishi ustidan nazoratni amalga oshirishga mas’ul etib belgilansin.

20. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (v.v.b.E.Imomov):

-mahalliy byudjet daromad va xarajatlarining prognoz ko‘rsatkichlari bajarilishi hamda soliq bazasini kengaytirish yuzasidan ko‘rilgan chora-tadbirlar;

-ajratilgan byudjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanishi yuzasidan erishilgan natijalar bo‘yicha Kengashga har chorakda kamida bir marotaba hisobot kiritib borsin.

21. Tuman hokimligi qonunda belgilangan ayrim soliqlar va to‘lov stavkalari, soliq solish tartiblari hamda boshqa ma’lumotlarni ommaviy axborot vositalarida yoritilishini ta’minlasin.

22. Bekobod tuman hokimligi matbuot xizmatiga:

mazkur qaror rasmiy e’lon qilinishi uchun tuman rasmiy veb-saytiga va tuman ommaviy axborot vositalarida joylashtirilishini ta’minlash tavsiya etilsin.

23. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

24. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy byudjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari doimiy komissiyasi A. Qurbonov va tuman hokimining birinchi o‘rinbosari v.v.b E.Imomov zimmasiga yuklatilsin.

Sessiya raisi **Q.Bobojonov**

Xalq deputatlari Bekobod tuman
Kengashining
2024-yil 6-yanvardagi
VI-83-1-10-135-K/24-son qaroriga
1-ilova

Toshkent viloyati viloyat byudjeti daromadlarining 2024-yildagi asosiy prognoz ko‘rsatkichlari

ming so‘mda

Daromad turlari		Summa ming so‘m	Ajratma Me’yori
1	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i	1,387,620	39
2	Korxonalar aylanmasidan soliq	4,512,000	50
3	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	18,154,500	38
4	Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	1,010,000	100
5	Yakuniy iste’molchilarga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i	9,485,000	100
6	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	2,161,000	100
7	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	6,289,000	100
8	Yuridik shaxslar yer solig‘i	11,201,000	100
9	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	17,289,000	100
10	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	422,000	100
11	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	3,607,000	100
13	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	193,000	100
JAMI:		**75,711,120**	
	Mobil aloqa xizmati va alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivo uchun aksiz solig‘i tushumlaridan tegishli ravishda o‘tkazib beriladigan daromad	**28,162,000**	
13	Alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivo	12,208,000	
14	Mobil aloqa xizmati	4,917,000	
15	Tamaki mahsulotlari aksiz solig‘i	11,037,000	
JAMI DAROMAD		**103,873,776**	

Xalq deputatlari Bekobod tuman
Kengashining
2024-yil 6-yanvardagi
VI-83-1-10-135-K/24-son qaroriga
2-ilova

2024-yil uchun Bekobod tuman mahalliy byudjetidan ajratiladigan byudjet mablag‘larning cheklangan miqdorlari

Ko‘rsatkichlar		Miqdori (ming so‘m)
	Xarajatlar - jami	**193,737,776**
1.	**Ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashga xarajatlar - jami**	**125,881,039**
1.1	Maorif	25,635,996
	- maktabgacha ta’lim	12,686,304
	- umumiy ta’lim	12,949,692
1.2	Sog‘liqni saqlash	92,554,352
	Tibbiy-ijtimoiy xizmatlar uchun xarajatlar	
1.3	Madaniyat va sport, ommaviy axborot vositalari	7,476,450
	- madaniyat va ommaviy axborot vositalari	1,674,770
	- sport	5,801,680
1.4	Bolali oilalarga va kam ta’minlangan oilalarga nafaqalar va kompensatsiyalar	
1.5	Ozodlikdan mahrum etish jazosini o‘tab bo‘lgan fuqarolarga «dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paketi»	55,200
1.6	Ijtimoiy ko‘nikma markazlari	159,041
2.	**Iqtisodiyotga xarajatlar**	**22,639,060**
2.1	Fermerlar xo‘jaliklari buxgalteriya markazlari	382,737
2.2	Obodonlashtirish	12,580,329
2.3	Mening yo‘lim dasturi	4,000,000
2.4	**Suv xo‘jaligi vazirligi tashkilotlari**	**2,156,326**
2.5	**Veterinariya qo‘mitasi**	**1,310,157**
2.6	**"Mahalla byudjeti" jamg‘armasi mablag‘lari**	**2,209,511**
3	**Davlat boshqaruv organlarini saqlash**	**23,207,672**
3.1	**Davlat boshqaruv idoralari**	**23,207,672**
4	**Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarini saqlash**	
5	**Zahira jamg‘armasi**	**1,717,278**

6	**Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi**	**20,292,727**

Xalq deputatlari Bekobod tuman Kengashining
2024-yil 6-yanvardagi
VI-83-1-10-135-K/24-son qaroriga
3-ilova

Umumdavlat soliqlaridan Bekobod tuman mahalliy byudjetiga ajratmalar me’yori

T/r	Shahar va tumanlar nomi	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	Benzinni, dizel yoqilg‘isini va gazni yakuniy iste’molchilarga realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i	Aylanma-dan olinadi-gan soliq	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq (elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan soliq hamda Bo‘stonliq tumani bundan mustasno)	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq (yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq bundan mustasno)
1	**Bekobod tuman**	38%	39%	100%	100%	100%	50%	100%	100%

Xalq deputatlari Bekobod tuman
Kengashining
2024-yil 6-yanvardagi
VI-83-1-10-135-K/24-son qaroriga
4-ilova

Bekobod tuman mahalliy byudjetining 2024-yil daromadlari va xarajatlari prognozlari

ming so‘mda

T/r	Hudud nomi	Daromad	Xarajat	Transfert
1	Bekobod tuman	103 873 120,0	193 737 776,0	89 864 656,0

Xalq deputatlari Bekobod tuman
Kengashining
2024-yil 6-yanvardagi
VI-83-1-10-135-K/24-son qaroriga
5-ilova

Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar bo‘yicha tuman va shaharlar kesimida yer solig‘i stavkalari uchun 2024-yilda belgilangan koeffitsientlar

№	MFYlar nomi	Yuridik shahslardan undiriladigan yer solig‘i stavkalari, 1 ga uchun		Jismoniy shahslar bo‘yicha,1 kv.m uchun	
		2024-yil		2024-yil	
		Koeffitsient (0,5 dan 2,0 gacha)	Yer solig‘i stavkasi (ming so‘mda)	Koeffitsient (0,5 dan 2,0 gacha)	Yer solig‘i stavkasi (so‘mda)
1	Achamayli MFY	0,75	2 913,75	0,65	227,27
2	Beshyuz MFY	0,95	3 690,75	0,85	297,20
3	Birdamlik MFY	0,75	2 913,75	0,65	227,27
4	Bobur Mirzo MFY	0,95	3 690,75	0,95	332,17
5	Bog’ishamol MFY	0,95	3 690,75	0,95	332,17
6	Bunyodkor MFY	0,95	3 690,75	0,95	332,17
7	Bo’ston MFY	1,05	4 079,25	1,05	367,13
8	Gulzor MFY	0,75	2 913,75	0,75	262,24
9	Guliston MFY	1,05	4 079,25	1,05	367,13
10	Dalvarzin MFY	0,95	3 690,75	0,95	332,17
11	Dexqonobod MFY	0,75	2 913,75	0,65	227,27
12	Do'stlik MFY	0,90	3 496,50	0,90	314,69
13	Yoshlik MFY	0,75	2 913,75	0,75	262,24
14	Yoshlik-2 MFY	0,75	2 913,75	0,65	227,27
15	Ziyoli MFY	0,75	2 913,75	0,70	244,76
16	Ilg‘or MFY	0,90	3 496,50	0,90	314,69
17	Istiqbol MFY	1,00	3 885,00	1,00	349,65
18	Istiqlol MFY	1,05	4 079,25	1,05	367,13
19	Isfara MFY	0,75	2 913,75	0,75	262,24
20	Qolg’ansir MFY	0,75	2 913,75	0,65	227,27
21	Qoraqo'yli MFY	0,75	2 913,75	0,75	262,24
22	Qo'shtamgali MFY	0,75	2 913,75	0,75	262,24
23	Qushchi MFY	0,75	2 913,75	0,75	262,24
24	Qo‘qoni MFY	0,75	2 913,75	0,75	262,24
25	Qo‘rg‘on MFY	0,90	3 496,50	0,90	314,69
26	Mallaboy MFY	1,00	3 885,00	1,00	349,65
27	Mustaqillik MFY	0,75	2 913,75	0,75	262,24
28	Nazarboy MFY	1,00	3 885,00	1,00	349,65

29	Nayman MFY	0,75	2 913,75	0,65	227,27
30	Oq tepa MFY	0,75	2 913,75	0,75	262,24
31	Oltin vodiy MFY	0,95	3 690,75	0,90	314,69
32	Parchayuz MFY	0,75	2 913,75	0,75	262,24
33	Pastki Kerayit MFY	0,75	2 913,75	0,75	262,24
34	Paxtakor MFY	0,75	2 913,75	0,65	227,27
35	Savrak MFY	0,75	2 913,75	0,65	227,27
36	Saryuz MFY	0,75	2 913,75	0,65	227,27
37	Taqachi MFY	1,00	3 885,00	1,00	349,65
38	Terakzor MFY	0,75	2 913,75	0,75	262,24
39	Turon MFY	0,75	2 913,75	0,70	244,76
40	O'zbekiston MFY	0,90	3 496,50	0,90	314,69
41	O'zbekobod MFY	0,95	3 690,75	0,95	332,17
42	O'rikzor MFY	0,75	2 913,75	0,75	262,24
43	Uyas MFY	0,75	2 913,75	0,65	227,27
44	Farxod MFY	0,95	3 690,75	0,95	332,17
45	Xamza MFY	0,75	2 913,75	0,75	262,24
46	Xonobod MFY	0,75	2 913,75	0,70	244,76
47	Xos MFY	0,75	2 913,75	0,75	262,24
48	Shova MFY	1,00	3 885,00	1,00	349,65
49	Yangi bozor MFY	0,95	3 690,75	0,95	332,17
50	Yangi ovul MFY	0,75	2 913,75	0,70	244,76
51	Yangi hayot MFY	0,75	2 913,75	0,65	227,27

Xalq deputatlari Bekobod tuman
Kengashining
2024-yil 6-yanvardagi
VI-83-1-10-135-K/24-son qaroriga
6-ilova

Yuridik shaxslar bo‘yicha mol-mulk soliqlari uchun qo‘llaniladigan mutloq miqdorlari

T/r	Tuman va shaharlar nomi	Koeffitsient (mutloq miqdor)	Belgilangan qiymat (so‘m)
1	Bekobod tumani	0.9	900 000,0